



COMPREHENSIVE SYSTEM OF PROTECTING WOMEN AND CHILDREN FROM HARASSMENT AND VIOLENCE IN UZBEKISTAN: LEGAL, SOCIAL, AND INSTITUTIONAL ANALYSIS

Dauletnazarova Zulfiya Abatbergenovna

Deputy hokim of nukus city – head of the family and women's department

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18631351>

ARTICLE INFO

Received: 06th February 2026

Accepted: 12th February 2026

Online: 13th February 2026

KEYWORDS

Women's rights, child protection, domestic violence, criminalization, protection order, "Inson" social service center, rehabilitation, gender equality, New Uzbekistan.

ABSTRACT

This article systematically analyzes the legal and institutional mechanisms for protecting women and children from harassment and violence in Uzbekistan. The study examines the 2023 Criminal Code amendments and the priorities of the new 2024 legislation on child protection from a scientific perspective. Finally, the activities of "Inson" social service centers are investigated, and practical recommendations for fostering zero tolerance for violence within society are proposed.

O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR VA BOLALARNI TAZYIQ HAMDA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING KOMPLEKS TIZIMI: HUQUQIY, IJTIMOY VA INSTITUTIONAL TAHLIL

Dauletnazarova Zulfiya Abatbergenovna

Nukus shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18631351>

ARTICLE INFO

Received: 06th February 2026

Accepted: 12th February 2026

Online: 13th February 2026

KEYWORDS

Xotin-qizlar huquqlari, bolalar himoyasi, oilaviy zo'ravonlik, kriminalizatsiya, himoya orderi, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi, reabilitatsiya, gender tenglik, Yangi O'zbekiston.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistonda xotin-qizlar va bolalarni tazyiq hamda zo'ravonlikdan himoya qilishning huquqiy-institutsional mexanizmlari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2023-yildagi Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgarishlar va 2024-yilda qabul qilingan bolalar himoyasiga oid yangi qonuniy ustuvorliklar ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Maqola yakunida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati o'rganilib, jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan murosas-sizlikni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Insoniyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida xotin-qizlar va bolalar huquqlarini ta'minlash nafaqat huquqiy, balki fundamental ijtimoiy-axloqiy zaruratga aylandi. O'zbekiston

Respublikasi mustaqillik davrida inson huquqlari bo'yicha global majburiyatlarni bajarish yo'lida tizimli islohotlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, so'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston"



strategiyasi doirasida xotin-qizlar va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Oliy Majlis Senati raisi, professor T.Narbaevaning ta'kidlashicha, oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy garovidir [1].

Zo'ravonlik — bu shunchaki jismoniy kuch ishlatish holati emas, balki shaxsning qadr-qimmati, ruhiy salomatligi va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini jiddiy cheklovchi murakkab fenomen hisoblanadi. Ushbu tushunchani ilmiy anglash uning oldini olish strategiyasini ishlab chiqishda poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda zo'ravonlik shaxsning irodasiga qarshi sodir etiladigan, uning huquqlari va erkinliklarini buzuvchi harakatlar majmui sifatida ta'riflanadi. O'zbekistonlik huquqshunos olimlar "kuch" (force) tushunchasini bir shaxsning boshqasini majburlash, zo'rlik bilan bo'ysundirish yoki jismoniy-ruhiy tazyiq orqali uning huquqlarini buzishi sifatida talqin qiladilar.

Xalqaro miqyosda tan olingan nazariyalar, xususan, Lenore Walkerning "zo'ravonlik sikli" modeli oilaviy nizolarning dinamikasini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega [2]. Ushbu model kuchlanish ortishi, o'tkir zo'ravonlik hodisasi va yarashish bosqichlarini o'z ichiga oladi. O'zbekistondagi oilaviy munosabatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pincha jabrlanuvchilar aynan "yarashish" davridagi va'dalarga ishonib, yuridik yordamdan voz kechadilar, bu esa zo'ravonlikning surunkali tus

olishiga sabab bo'ladi. Walker, shuningdek, "o'rganilgan ojizlik" nazariyasini ilgari surib, uzoq muddatli tazyiq ostida qolgan shaxsning o'zini himoya qilish instinkti susayishini isbotlagan.

Psixologik nuqtai nazaridan, Albert Bandura va Murray Straus tadqiqotlari zo'ravonlikni "o'rganilgan xulq-atvor" (learned behavior) deb hisoblaydi. Agar bola o'z oilasida zo'ravonlik modellarini ko'rib o'ssa, unda nizolarni hal qilishning yagona vositasi kuch ishlatish degan tushuncha shakllanadi[4]. Bu "zo'ravonlik pedagogikasi" deb atalib, jamiyatda avloddan-avlodga o'tuvchi salbiy zanjirni hosil qiladi. O'zbekistonlik olimlar bu fikrni qo'llab-quvvatlab, oiladagi an'anaviy qarashlar niqobidagi tazyiqlarni inson huquqlari nuqtai nazaridan tanqidiy qayta baholash zarurligini ta'kidlamodalar. Fikrimizni yanada aniq ifodalash uchun so'ngi yillarda O'zbekiston qonunchiligidagi tub islohotlarni keltirib o'tamiz.

So'nggi ikki yilda O'zbekiston xotin-qizlar va bolalarni himoya qilish borasida inqilobiy huquqiy o'zgarishlarni amalga oshirdi. Ilgari maishiy nizolar "oilalardagi masala" sifatida talqin qilingan bo'lsa, endilikda u davlat darajasidagi jinoyat sifatida e'tirof etilmoqda.

Oilaviy zo'ravonlikni kriminalizatsiya qilish. 2023-yil aprel oyida Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartishlar (xususan, 126-1-moddalari) sohadagi eng katta yutuqlardan biri bo'ldi. Ushbu modda bilan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilandi. Bu nafaqat jismoniy, balki ruhiy va iqtisodiy zo'ravonlikni ham o'z ichiga oladi. BMT va Human Rights Watch kabi xalqaro



tashkilotlar O'zbekistonning ushbu qadamini Markaziy Osiyo mintaqasida inson huquqlari sohasidagi muhim burilish sifatida baholadi. Shu bilan birga, jinsiy zo'ravonlik, ayniqsa voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo choralari maksimal darajada kuchaytirildi. Bunday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan afv etish yoki jazoni muddatidan oldin o'tashdan ozod qilish choralari cheklandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kriminalizatsiya jarayoni huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining zo'ravonlikka bo'lgan munosabatini o'zgartirmoqda.

Aynan mana shu islohotlarning mantiqiy va huquqiy davomi sifatida 2024-yil 14-noyabrda qabul qilingan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun (O'RQ-996) sohadagi navbatdagi yangi bosqichni boshlab berdi. Qonun bolalarni jismoniy, jinsiy, ruhiy zo'ravonlik bilan birga, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik va ekspluatatsiya qilish kabi shakllardan ham himoya qiladi. Ushbu qonun bilan birinchi marta "bolalarga nisbatan himoya orderi" instituti joriy etildi. Shuningdek, zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning reyestri yuritilishi va ularning ta'lim muassasalarida ishlashi taqiqlanishi belgilab qo'yildi. UNICEF vakillari ushbu qonunni O'zbekistonning kelajak avlod uchun xavfsiz muhit yaratish borasidagi qat'iy siyosiy irodasi sifatida olqishladi.

Ushbu mavzuni tahlil qilishda institutsional mexanizmlar va yordam ko'rsatish tizimi ham katta ahamiyatga ega. Faqat qonunlarning mavjudligi zo'ravonlikni to'xtatib qola olmaydi. Buning uchun jabrlanuvchilarga real va

tezkor yordam ko'rsatuvchi infratuzilma zarur. 2024-yilda qabul qilingan 354-sonli hukumat qarori ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini tubdan yangiladi. Hozirgi kunda yordam ko'rsatish zanjiri ko'p bosqichli va ko'p tarmoqli (multidissiplinar) shaklda tashkil etilgan:

1. **Xabardor qilish:** Xabarlar "102", "112" va "1146" ishonch telefonlari orqali qabul qilinadi. Shuningdek, patronaj hamshiralari va ijtimoiy xodimlar zo'ravonlik alomatlarini aniqlashda mas'ul etib belgilangan.

2. **Birlamchi ko'mak:** Sog'liqni saqlash tizimida tashkil etilgan "birlamchi ko'mak xonalari"da jabrlanuvchilarga 24 soatlik tibbiy va psixologik yordam ko'rsatiladi.

3. **Ijtimoiy reabilitatsiya:** "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari har bir jabrlanuvchi uchun yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturini ishlab chiqadi. Agar hayotiga xavf mavjud bo'lsa, shaxs 6 oygacha bo'lgan muddatga hududiy reabilitatsiya markaziga (shelterga) joylashtiriladi.

"Inson" markazlarining vazifasi nafaqat vaqtinchalik boshpana berish, balki jabrlanuvchining iqtisodiy va ijtimoiy mustaqilligini ta'minlashdir. 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, "Ayollar daftari" tizimi orqali minglab xotin-qizlar tadbirkorlikka jalb qilinib, ularning zo'ravon shaxsga bo'lgan iqtisodiy qaramligiga barham berilmoqda. Himoya orderi — bu xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikdan davlat himoyasini beradigan rasmiy hujjatdir. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil avgustdagi 529-sonli qarori bilan ushbu orderni berish va uning talablarini nazorat qilish tartibi takomillashtirildi.



Hozirgi tartibga ko'ra, himoya orderi profilaktika inspektori tomonidan 24 soat ichida rasmiylashtiriladi. Order dastlab 30 kun muddatga berilib, zarurat bo'lsa sud tomonidan 1 yilgacha uzaytirilishi mumkin. Shuningdek, yil davomida ikki martadan ortiq murojaat qilinganda ichki ishlar organlari tomonidan "proaktiv" (davlat tashabbusi bilan) himoya orderi berish tizimi yo'lga qo'yildi. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2025-yilning birinchi choragida 24 mingdan ortiq ayolga himoya orderi berilgan. Biroq, Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti K.Aliyeva ta'kidlaganidek, himoya orderi talablarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikning yo'qligi ba'zan uning samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, olimlar himoya orderi talablarini buzishni "zo'ravonlikga suiqasd" sifatida baholash va javobgarlikni kuchaytirishni taklif etmoqdalar.

O'zbekistonda zo'ravonlikga qarshi kurashishda eng katta to'siq — bu "uyat" madaniyati va an'anaviy stereotiplardir. Ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respondentlarning 93 foizi jamiyatda zo'ravonlik muammosi mavjudligini tan oladi. Shunga qaramay, jabrlanuvchilarning atigi 27,9 foizi politsiyaga murojaat qiladi. Ko'pincha jamiyat jabrlanuvchini "oila sirini ko'chaga chiqarganlikda" ayblaydi yoki uni "sabr qilishga" undaydi. Ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi ayollarning 65 foizi o'z huquqlari buzilganda qayerga murojaat qilishni bilmasligi aniqlangan. Bu esa huquqiy savodxonlikni oshirish va zo'ravonlikga nisbatan jamiyatda "nol toqat" (zero tolerance) muhitini yaratish zarurligini anglatadi. Utkirbek Kholmiraev va Zayniddin Shamsidinov

o'zlarining 2024-yilgi tadqiqotida ta'kidlaganidek, sud tizimida ham jabrlanuvchiga nisbatan "inson" emas, balki "xotin" (oila elementi) sifatida qarash stereotipi hali ham saqlanib qolmoqda, bu esa adolatli sudlovga to'sqinlik qilishi mumkin.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik esa, nafaqat bugungi fojia, balki millat genofondiga yetkazilgan jiddiy zarardir. Murray Straus tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolalarni jismoniy jazolash ularda agressiyani oshiradi va o'z-o'zini baholashni pasaytiradi, bu esa kelajakda ular ham zo'ravon bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. O'zbekistonning 2024-yilgi yangi strategiyasiga ko'ra:

- Ta'lim va tibbiyot muassasalari xodimlari boladagi har qanday zo'ravonlik alomatlarini ko'rsa, darhol vakolatli organlarga xabar berishi shart.
- Zo'ravonlikga uchragan bolalar va ularning qonuniy vakillari moddiy va ma'naviy zararni qoplash bo'yicha sudga murojaat qilganda davlat bojidan ozod etiladi.
- Sud jarayonlarida prokuror ishtiroki majburiy etib belgilandi, bu esa bolaning manfaatlarini yanada ishonchli himoya qiladi [5].

O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zosi sifatida o'z zimmasiga katta majburiyatlarni olgan. Shvetsiya kabi mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, maktab dasturlariga gender tengligi va zo'ravonlikga qarshi darslarning kiritilishi oilaviy zo'ravonlikni 20 foizga kamaytirgan. Sohoni yanada takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. **Raqamli monitoring:** 2025-yilgacha zo'ravonlik holatlari haqida



zudlik bilan xabar berish imkonini beruvchi mobil ilovani to'liq ishga tushirish.

2. Ijtimoiy

qo'llab-

quvvatlash: Himoya orderi olgan shaxslarga o'z ruhiy holatini tiklash uchun 10 kunlik haq to'lanadigan qo'shimcha mehnat ta'tili berish tizimini amaliyotga joriy etish.

3. Tuzatish

dasturlari:

Nafaqat jabrlanuvchilar, balki zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan ham majburiy psixologik tuzatish (reabilitatsiya) dasturlarini o'tkazish mexanizmini kuchaytirish.

4. **Huquqiy ta'lim:** Oliy ta'lim tizimida "Oila psixologiyasi" va "Gender huquqi" modullarini majburiy fanlar qatoriga kiritish.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkin, xotin-qizlar va bolalarni tazyiq hamda zo'ravonlikdan himoya qilish — bu faqatgina huquqni muhofaza qilish organlarining vazifasi emas, balki butun jamiyatning vijdoniy burchidir. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar mustahkam huquqiy va institutsional bazani yaratdi. Endigi asosiy vazifa — ushbu mexanizmlarning joylarda to'laqonli ishlashini ta'minlash va jamiyatda zo'ravonlikga nisbatan mutlaq murosasizlik (zero tolerance) muhitini shakllantirishdir. Har birimiz o'z oilamizda, mahallamizda va ish joyimizda zo'ravonlikga nisbatan murosasizlikni shakllantirsak, Yangi O'zbekistonning kelajagi yanada xavfsiz va farovon bo'ladi.

References:

1. Narbayeva T.K. Oila va xotin-qizlarni himoya qilish — davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi. "Oila instituti rivojlanishida qadriyatlarning o'rni" mavzusidagi konferensiya materiallari. Toshkent, 2022.
2. Walker, L. E. The Battered Woman. New York: Harper & Row, 1979.
3. Bandura, A. Social Learning Theory. New Jersey: Prentice-Hall, 1977.
4. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 02.09.2019-y., O'RQ-561-son.
5. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 14.11.2024-y., O'RQ-996-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 354-sonli "Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 25.06.2024-y.